



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Obidov Jamshidbek G'ayratjon o'g'li

Farg'ona politexnika instituti o'qituvchisi

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA TEXNOLOGIK DETERMINIZM KONSEPSIYASI ASOSLARIGA DOIR BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISHDA TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI VA METODIKASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni va metodikasi, ta'lim sifati va samaradorlikka erishishda tajriba sinov-ishlarining ahamiyati, tajriba sinov-ishlarining ta'kidlovchi, asoslovchi va shakllantiruvchi bosqichlarni o'z ichiga olganligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: tajriba-sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishi, tajriba sinov-ishlarini ta'kidlovchi, asoslovchi va shakllantiruvchi bosqichlar, respondentlar, muammoning nazariy asoslari bilan amaliy ishlanmalar orasida o'zaro aloqadorlik, tajriba va nazorat guruhlari.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirish jarayonida qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, samaradorlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Tajriba sinov-ishlari ta'kidlovchi, asoslovchi va shakllantiruvchi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlar asosida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishning natijakorligi solishtiriladi, tahlil qilinadi va natijalar asosida ilmiy farazlar ilgari suriladi.

Tadqiqot ishining nazariy qismida bayon etilgan fikrlarning amaliy ishlanmalar bilan uyg'unlashtirilganligi, mavjud pedagogik jarayonning har tomonlama tahlil etilganligi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va yutuqlarni boyitish ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari davomida belgilab olinishi kerak. Shunga ko'ra, amalga oshirilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish maqsadida maxsus ko'rsatkichlar tizimini o'z ichiga olgan dastur ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish lozim. Mazkur dastur asosida Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi ko'rsatkichlar, shuningdek, tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash metodikasi yoritish zarur.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda talaba shaxsiga yondashuv quyidagi qoidalarni amalga oshirishni talab etdi:

- eksperimentatorning diqqatini talabalarning tajriba-sinovga munosabati, taqdim etilayotgan topshiriq va mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilarning qiziqishiga jalb etish;
- ta'lim oluvchilarning ishchanlik qobiliyati (psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari) va individual yordam ko'rsatish, konsultatsiya berish;
- topshiriq va metodik materiallarni ta'lim oluvchilar o'rtasida murakkablik darajasi va uni o'zlashtirishning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqsimlash;
- o'rganilayotgan muammoning murakkab masalalarini chuqur qayta ishlab chiqish bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini baholashiga erishish.

Ilmiy-naazriy ma'lumotlarning zarurati va yetarli bo'lishi tamoyili tajriba-sinovni aniq baza(Mazkur tadqiqot uchun baza vazifasini Farg'ona politexnika institutida o'tadi)da tashkil etishda o'z aksini topadi. Profesoora-o'qituvchi va talabalar o'rtasida ilmiy-nazariy ma'lumotlarning almashinuvini o'z ichiga qamrab olgan umumilmiy tushunchalar, informatsion bloklar o'quv-kasbiy faoliyatning aynan o'ziga yo'naltirilgan bo'lishi lozim zaruriy vositadir.

Ilmiy-metodik maslahatning har tomonlamaligi o'qituvchining o'zidan yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishga ko'plab omillar, shu jumladan, ta'lim mazmuni va metodlarining ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga mosligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tajriba-sinov o'tkazish jarayonida talabalarga maslahatlar berish quyidagi talablarga javob beradi:

- maxsus ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni taqdim etish uni bajarishni osonlashtiradi;
- sub'ektiv pozitsiyani anglash va ishonch hosil qilishga yo'naltirilgan, yangi material mazmunini o'zlashtirishning interfaol metod va usullari taklif etiladi;
- texnologik determinizm konsepsiyasi asosida oliy texnik ta'limda texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlariga qarshi profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tanlash va moslashtirish imkoniyati taqdim etiladi.

Pedagogik eksperimentni insonparvarlashtirish tamoyili texnokratik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ma'muriy kabilardan insoniy qadriyatlarining ustunligi g'oyasiga asoslanadi. U tajriba-sinovda quyidagi shartlarni amalga oshirishni talab etadi:

- unda o'rganilayotgan jarayon va tarbiyaviy munosabatlar talabalarning fuqarolik huquqlarini to'liq tan olish va hurmatga asoslanish asosiga quriladi;
- ta'lim oluvchilarning ijobiy sifatlariga tayanish;
- o'rganilayotgan jarayon ta'lim oluvchilar uchun jamiyatning talablariga javob beruvchi axloqiy va emotsional yo'nalganlikni aks ettiradi;

tajriba-sinov davomida ishtirokchilar o'zaro munosabatlarda qulaylikni his etishi lozim.

Zamonaviy tezkor va shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda ta'lim faoliyati samaradorligi talabalarda shakllangan texnologik determinizm konsepsiyasiga doir bilim, malaka va ko'nikmalar darajasiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shu bois texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining texnologik determinizm konsepsiyasiga doir bilimlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli-funksional qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini oshirishning nazariy, konseptual va texnologik asoslari R.X.Djurayev, A.R.Xodjabayev, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, E.O.Turdiqulov, M.B.O'razova, J.A.Hamidov, M.Toshov, O.A.Abduquddusov, M.Jumaniyozova, R.A.Mavlonova va boshqalarning ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida V.S.Stepanov, B.Stepin, M.I.Shadov, Yu.A.Chernegov, N.Yu.Chernegov kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslari orqali texnikani yaratish, foydalanish va takomillashtirishga qaratilgan ta'limiy-tarbiyaviy metodikani rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari ham yoritilgan.

G'arb mamlakatlarida texnogen sivilizatsiya inqirozining salbiy ta'sirlariga qarshi Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish masalalari olimlar J.Martin, X.Bek, F.Dessauer, S.Xoking, N.Vig, J.Ellyul, M.Xaydegger, K.Yaspers, D.Medouzlarning tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan.

Biroq yuqorida keltirilgan olimlarning tadqiqot ishlarida Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning innovatsion pedagogik asoslari maxsus o'rganilmaganligi ham mazkur ilmiy maqolaning ahamiyatini oshiradi. Mazkur ilmiy maqolada mavjud tadqiqot ishlarini umumlashtirib, yangicha yondashuvlar asosida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasiiga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Ilmiy-naazriy ma'lumotlarning zarurati va yetarli bo'lishi tamoyili tajriba-sinovni aniq bazada tashkil etishda o'z aksini topadi. Profesoar-o'qituvchi va talabalar o'rtasida ilmiy-nazariy ma'lumotlarning almashinuvini o'z ichiga qamrab olgan umumilmiy tushunchalar, informatsion bloklar o'quv-kasbiy faoliyatning aynan o'ziga yo'naltirilgan bo'lishi lozim zaruriy vositadir.

Ilmiy-metodik maslahatning har tomonlamaligi o'qituvchining o'zidan yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishga ko'plab omillar, shu jumladan, ta'lim mazmuni va metodlarining ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga mosligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tajriba-sinov o'tkazish jarayonida talabalarga maslahatlar berish quyidagi talablarga javob beradi:

- maxsus ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni taqdim etish uni bajarishni osonlashtiradi;
- sub'ektiv pozitsiyani anglash va ishonch hosil qilishga yo'naltirilgan, yangi material mazmunini o'zlashtirishning interfaol metod va usullari taklif etiladi;

texnologik determinizm konsepsiyasi asosida oliy texnik ta'limda texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlariga qarshi profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tanlash va moslashtirish imkoniyati taqdim etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonarliligi empirik ma'lumotlarni o'lchash sifati va nazariy xulosalarning to'g'riligiga bog'liq. Empirik ma'lumotlarni o'lchash va tahlil etishda axborotning ishonarliligi mezonidan foydalanildi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirish darajalariga muvofiq, mezon, ko'rsatkich va diagnostik metodikalar aniqlashtirildi.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishga aksiologik munosabat, shuningdek, motiv va refleksiv nuqtai nazarining shakllanganligini aniqlashda moslashuvchan metodikalardan foydalanildi. Talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlanganligini aniqlashda mualliflik metodikalaridan foydalanildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.400.
2. Begmurzayevich, D. B. (2022). BO 'LAJAK BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QITUVCHILARIDA REFLEKSIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 154-160.
3. Begmurzayevich, D. B. (2022). O 'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *Ijodkor o 'qituvchi*, 2(20), 52-59.
4. Jamshidbek G'ayratjon o'g, O. (2022). BO 'LG 'USI MUHANDISLARNI MALAKALI YETUK KADRLAR QILIB TAYYORLASHDA TEXNOLOGIK DETERMINIZM KONSEPSIYASI ASOSLARIGA DOIR BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING O 'RNI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(19), 287-290.
5. Jamshidbek, O. (2022). EFFECTIVENESS OF IMPROVING STUDENTS'KNOWLEDGE ABOUT THE BASICS OF THE CONCEPT OF TECHNOLOGICAL DETERMINISM. *Conferentia*, 348-354.
6. Obidov, J. G. O. (2020). About safety technique and issues of supplying electricity of the textile industry. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 123-127.
7. Obidov, J. G., & Alixonov, E. J. (2021). Organization of the education process based on a credit system, advantages and prospects. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1149-1155.

8. Obidov, J. G., & Ibrohimov, J. M. (2021). Application and research of energy-saving lighting devices in engineering networks. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1370-1375.
9. Saidkulovich, S. B. (2020). THE INFLUENCE OF PHYSICAL CULTURE FOR THE HARMONIOUS DEVELOPMENT OF PERSONALITY AND STRENGTHENING THE HEALTH OF PUPILS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(2).
10. Siddikov, B. S. (2020). The importance of sports and recreation activities for a harmoniously developed generation. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 107-111).
11. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.
12. Siddiqov, B. S., & G'aniyevich, Q. M. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 173-180.
13. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.
14. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
15. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.
16. Джалалов Б.Б. (2016). МЕСТО И РОЛЬ ВОЗДЕЙСТВИЯ ВОСПИТАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 38-41.
17. Джалалов, Б. Б. (2018). РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 53-55).
18. Джалалов, Б. Б. (2019). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 43-44).
19. Джалалов, Б. Б. (2022). BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA SMART-TA'LIMNING IMKONIYATLARI. *УЧИТЕЛЬ*, 3(4).

20. Джалалов, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016). Преимущества коллективного обучения. *Ученый XXI века*, 40.
21. Закирова, Д. С. (2020). Развитие культуры межнационального согласия у студентов. *European science*, (4 (53)), 58-60.
22. Сиддиков, Б. (2014). УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ КОМПЛЕКСЫ: СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 71-74.
23. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. *Ученый XXI века*, (6-2).
24. Сиддиков, Б., & Абдуллаев, Э. (2021). Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish. *Общество и инновации*, 2(10/S), 353-360.